



RELATIONS BETWEEN THE CENTRAL ASIAN KHANATES AND IRAN: DYNAMICS OF DIPLOMACY, RIVALRY, AND COOPERATION IN THE 16TH–19TH CENTURIES

Temirbek Kuchkarov

Senior Lecturer at the Oriental University
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Central Asian Khanates, Iran (Safavids, Afsharids, Qajars), Khanate of Khiva, Emirate of Bukhara, Diplomatic Relations, Political Relations, Economic Interests, Iskandar Beg Munshi, “Firdaws al-Iqbal”, “Riyaz al-Dawla”, “Gulshan al-Mulk”.

Received: 01.11.25

Accepted: 02.11.25

Published: 03.11.25

Abstract: This article provides an analysis of the complex and multifaceted relations between the Central Asian khanates (primarily the Khanate of Khiva and the Emirate of Bukhara) and Iran (under the Safavid, Afsharid, and Qajar dynasties) from the 16th to the 19th centuries. The research demonstrates that these relations were shaped not merely by religious (Shia-Sunni) conflicts, but were primarily driven by political and economic interests—namely, the struggle for dominance over border regions such as Khorasan, control of trade routes, and the necessity of countering common regional rivals (the Shaybanids, Ashtarkhanids). The article examines friendly diplomatic exchanges, military alliances, cultural and economic cooperation, as well as contentious issues including the slave trade and border disputes. Particular emphasis is placed on the interference of the Russian Empire in the region and its impact on Iran-Central Asia relations.

MARKAZIY OSIYO XONLIKLARI VA ERON O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR: XVI-XIX ASRLAR DIPLOMATIYA, RAQOBAT VA HAMKORLIK DINAMIKASI

Temirbek Qo‘chqarov

Oriental universiteti katta o‘qituvchisi
Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo **Annatatsiya:** Ushbu maqola XVI-XIX xonliklari, Eron (Safaviylar, Afshoriylar, asrlarda Markaziy Osiyo xonliklari (asosan

Qo'jarlar), Xiva xonligi, Buxoro amirligi, Diplomatik aloqalar, Siyosiy munosabatlar, Iqtisodiy manfaatlar, Iskandarbek Munshiy, "Firdavs ul-iqbol", "Riyoziy ud-davla", "Gulshan ul-mulk".

Xiva xonligi va Buxoro amirligi) bilan Eron (Safaviylar, Afshoriylar va Qojarlar davlatlari) o'rtasidagi murakkab va ko'p qirrali munosabatlarni tahlil qilinadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, bu aloqalar nafaqat diniy (shia-sunniy) ziddiyatlar, balki asosan siyosiy va iqtisodiy manfaatlar – Xuroson kabi chegaradosh hududlar ustidan hukmronlik qilish, savdo yo'llarini nazorat qilish va mintaqaviy raqiblar (Shayboniylar, Ashtarxoniylar)ga qarshi kurashish zarurati bilan shakllangan. Maqolada ikki mintaqaga o'rtasidagi do'stona elchilik almashinuvlari, harbiy ittifoqlar, madaniy va iqtisodiy hamkorlik, shuningdek, qul savdosi va chegara nizolari kabi ziddiyatli masalalar yoritilgan. Xususan, Rossiya imperiyasining mintaqaga aralashuvi va uning Eron-Markaziy Osiyo munosabatlariga ta'siri alohida ta'kidlangan.

ХАНСТВА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И ИРАН: ДИПЛОМАТИЧЕСКАЯ, СОПЕРНИЧЕСКАЯ И СОТРУДНИЧЕСКАЯ ДИНАМИКА XVI–XIX ВЕКОВ

Темирбек Кўчкаров

Старший преподаватель Восточного университета

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Аннотация:
Центральноазиатские ханства, Иран (Сефевиды, Афшариды, Каджары), Хивинское ханство, Бухарский эмират, дипломатические отношения, политические отношения, экономические интересы, Искандербек Мунши, «Фирдаус уль-икбаль», «Рияз уд-даула», «Гульшан уль-мульк».	В данной статье анализируются сложные и многогранные отношения между Центральноазиатскими ханствами (главным образом, Хивинским ханством и Бухарским эмиратом) и Ираном (государствами Сефевидов, Афшаридов и Каджаров) в XVI–XIX веках. Исследование демонстрирует, что данные связи формировались не только под влиянием религиозных (шиитско-суннитских) противоречий, но в основном определялись политическими и экономическими интересами – такими как борьба за доминирование над приграничными территориями (Хорасан), контроль над торговыми путями и необходимость противостояния региональным rivals (Шейбаниды, Аштарханиды). В статье освещаются дружественные дипломатические обмены, военные союзы, культурное и экономическое сотрудничество, а также затрагиваются конфликтные вопросы, такие как

работоторговля и пограничные споры. Особое внимание уделяется вмешательству Российской империи в регион и его влиянию на ирано-центральноазиатские отношения.

Kirish. Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi o'zining juda boy va qadimiy tarixiga ega. Bu o'lka inson madaniyati dastlabki kurtak otgan sarzaminlardan biri sanaladi. U butun tarix davomida umumbashariy qadriyatlarning takomillashuviga salmoqli hissa qo'shib kelgan. Bu hol ana shu sarhadlarda ming yillar davomida qad ko'targan va tarix taqozosiga ko'ra birin-ketin faoliyat ko'rsatib o'tgan o'nlab davlatlarning serqirra va mazmundor tajribasida ham yaqqol ko'zga tashlanib turadi.

O'zbekiston diplomatiyasi tarixi - jahon tarixiy jarayoni, o'tmishda xalqlar va madaniyatlarning o'zaro aloqalarining birligini tasdiqlovchi butunjahon diplomatiyasining ajralmas qismidir.

Bugungi kundagi O'zbekiston va Eron munosabatlari – qadimdan to bugungi kunga qadar sinovdan o'tgan ko'p asrlik an'anaviy o'zaro manfaatli aloqalarning uzviy davomidir. Ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarni tarixiy ildizlari uzoq o'tmishdan bugungi kunga qadar katta bir tarixiy davrni o'z ichiga oladi.

O'zaro ikki mintaqa o'rtasidagi aloqalar bir daqiqa ham to'xtab qolmadi, Markaziy Osiyo xonliklari bilan Eron o'rtasida diplomatik aloqalar ham iqtisodiy, ham siyosiy, ham madaniy jihatdan yuksalib bordi.

Erondagi Safaviylar davlatining asoschisi shoh Ismoil I (1501-1524) siyosat maydonida paydo bo'lgan davrda Xorazm rasman Xuroson hukmdori Temuriy Sulton Husayn Boyqaro (1469-1506) davlati tarkibida bo'lgan[1.B.262-270]. Shoh Ismoil I ning Eron taxtiga o'tirishi munosabati bilan Sulton Husayn Boyqaro munosib hadyalar bilan unga o'z elchilarini yuborgan[2.C.27]. Shoh Ismoil ham o'z faoliyatining dastlabki davridanoq uzoqni ko'ra bilgan siyosatchi sifatida temuriylarning oxirgi vakili Sulton Husayn Boyqaro bilan mustahkam do'stona munosabatlar o'rnatganligi haqida ma'lumotlar tarixiy manbalarda yozib qoldirilgan[3.B.29]. Husayn Boyqaro vafotidan keyin vaziyat o'zgargan. So'nggi temuriy shaxzodalar (Husayn Boyqaroning avlodlari) dastlab 1501-yilda Movarounnahrni[4.B.966-976], 1506-1507-yillarda Xurosonni[4.B.1038-1040] zabt etgan Shohibek (Muhammad Shayboniyxon)dan qochib Eronda panoh topdi. Hududiy yaqinlik va davlatlarning o'z hududlarini kengaytirib olish uchun olib borgan harakati, o'z navbatida, mintaqani o'zaro urushlar maydoniga aylantirgan.

Shu o'rinda keltirib o'tish joizki, aksariyat tarixiy manbalarda Markaziy Osiyo xonliklarining Eron bilan o'zaro aloqalariga diniy dushmanlik, ya'ni shiya-sunniy ziddiyati jiddiy ta'sir ko'rsatganligi ta'kidlanadi. Lekin, XVI-XVIII asrlardagi voqea-hodisalarni o'rganish orqali xulosa qilish mumkinki, diniy qarama-qarshilik aslida ikki hudud o'rtasidagi chegaradosh yerlar, xususan, Xuroson uchun olib borilgan siyosiy raqobat va hukmron doiralarning iqtisodiy manfaatlari to'qnashgan mintaqaga bo'lgan. Manbalarda Markaziy Osiyo xonliklari, ayniqsa, Xiva xonligi bilan Eron safaviylari o'rtasidagi yaqin do'stona aloqalarga doir juda ko'p qimmatli ma'lumotlar ham mavjud.

Shoh Ismoil I vafotidan keyin (1524) Eronda yuzaga kelgan siyosiy vaziyat, mahalliy hokimlarning boshboshdoqliklari hamda chegara hududlarga tez-tez uyushtirib turiladigan o'zaro hujumlar Tahmasp I (Tahmosb I) (1524-1576)ning kuchsizlanib qolgan markaziy hokimiyatni mustahkamlash va o'z hududlari xavfsizligini ta'minlash maqsadida Xiva xonligi bilan maqbul aloqalar o'rnatishdan manfaatdor bo'lgan. Mintaqada vujudga kelgan siyosiy vaziyat keyingi davrda ham Eron va Xiva xonligi o'rtasida yaqin munosabatlarning o'rnatilishini taqozo qilgan edi. 1516-yilda Shayboniy Elbarsxon vafotidan keyin Xiva taxtida xonlarning muntazam almashib turish holati va Eronda kuchli hokimiyatning yo'qligi Movarounnahrda mustahkamlanib borayotgan Shayboniy hukmdorlarining keng ko'lamda yurishlar olib borishi uchun qulay sharoit tug'dirgan. Ularning Xorazm va Xurosonni o'z tasarrufiga kiritish uchun olib borgan harakatlari mustaqilliklarini mustahkamlashga intilayotgan Xiva xonligi va tarixan Xuroson masalasiga befarq bo'lmagan Eron davlati manfaatlariga zid kelar edi. Shuning uchun ham ikkala davlat buxoro shayboniylarining zaiflashuvidan manfaatdorlik hissi ikki mamlakatni yaqinlashtirgan.

Eron tarixchisi Iskandarbek Munshiy shoh saroyiga tashrif buyurgan birinchi Xorazm sultonlaridan Dinmuhammad va birodari Ali Sultonlar haqida ma'lumot berar ekan, ularning Xorazmga yurish qilgan Buxoro hukmdori Ubaydullaxon Shayboniy (1533-1539)ga qarshi kurashda yordam so'rab kelganliklari va ikki o'rtada yaqin aloqalar yo'lga qo'yilganligini qayd etgan[5.S.100-105]. Buxoroda Ubaydullaxon hukmronligi davrida Eron Safaviylari bilan munosabatlar Shayboniyxon davridagidan ham murakkab tus olib, ikki sulola o'rtasida Xuroson mintaqasi kurash nuqtasiga aylanganigaguvoh bo'lamiz. Birgina Ubaydullaxonning o'zi 1533-1538-yillar orasida olti marotaba qizilboshli qo'shiniga qarshi qo'shin tortdi[5.S.100-105]. Shuni alohida takidlash joizki, XVI asrning birinchi choragida tez-tez o'zgarib turgan siyosiy vaziyat Xiva - Eron aloqalarining muntazam, bir tekis olib borilishiga yo'l qo'ymas edi. Xiva xoni Hoji Muhammadxon (1558-1602) davrida Eron saroyi bilan o'zaro aloqalar, bordi-keldi va yozishmalar kuchayib, nisbatan muntazam aloqalar tusini olgan. Xorazm podshosi Hoji

Muhammadxon o'g'li Muhammadquli sultonni shoh Tahmosb I dargohiga yuborganligi va ikki o'rtada yozishma-yu bordi-keldi aloqalari mavjud bo'lganligi qayd etilgan[6.C.65-66].

Tahmosb I vafotidan keyin ham Ismoil II (1576-1577) saroyiga tashrif buyurgan Xorazm sultonlari katta ehtirom bilan kutib olingan. Hojimxon o'g'li Muhammadquli sultonni shoh Abbos I ning taxtga o'tirishi munosabati bilan katta miqdordagi sovg'a-salomlar va nodir tuhfar bilan Eronga elchi qilib yuborgan. Bu davrda Xivaning Buxoro xonligi bilan keskinlashgan munosabatlari Xiva-Eron siyosiy aloqalarining mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Birgina, Abdullaxon II (1557-1598)ning 1593-1594-yillarda Xivaga o'g'li Abdulmo'min bilan qilgan yurishi vaqtida ham Hojimxon umumiy dushman qo'shiniga qarshi kurasholmay Eron shohi Abbos I (1587-1623) huzuriga, Qazvin shahriga qochganligi[5.S.866-875] ham ikki davlat o'rtasida mustahkam do'stlik munosabatlari mavjud ekanligiga dalil bo'ladi. Abdullaxon II ning ushbu yurishiga sabab dastlab Mashhad va Nishopur shaharlarigacha bo'lgan Xuroson hududlarini egallaganida Eron shohiga Hojimxon xat yo'llab, Buxoroga qarshi kurashda Eronga yordam berish taklifi edi.

Xuroson yerlariga da'vo qilib chiqqan Abdullaxon II uning asosiy hududlarini o'z ta'siriga olishga muvaffaq bo'lgan. Buxoro xoni Xorazmga ham muvaffaqiyatli yurishlar uyushtirgan. Abdullaxonning Xorazmga qilgan hujumi bu davlat bilan do'stona aloqalarda bo'lgan Eronning Buxoroga nisbatan munosabatlarini yanada chigallashtirgan edi.

Abdullaxonidan mag'lubiyatga uchragan Hoji Muhammadxon to'ng'ich o'g'li Arab Muhammad Sulton va kenja o'g'li Sevinch Muhammad Sulton, shuningdek, 40-50 nafar sodiq xizmatchilari bilan Qazvin shahriga dastlab, keyin Eron shohi Abbos I huzuriga borgan. Shoh Abbos I Luristonga qarshi yurish qilayotganiga qaramay, Hoji Muhammadxonni katta iltifot bilan kutib olib, Xorazm taxtini qaytarib olishda yordam qilishga va'da bergan[5.S.874-875]. Xiva xoni va sultonlariga Eron saroyida yuksak ehtirom va hurmat ko'rsatilganligi nafaqat Eron manbalarida, balki u yerga tashrif buyurgan o'sha davrdagi rus elchisining esdaliklarida ham qayd etilgan.

Xiva-Eron o'rtasidagi do'stona aloqalar, o'zaro bordi-keldi va yozishmalar Hojimxonning o'z qo'li ostidagi hududlarni qaytarib olgandan keyingi davrda ham davom etgan.

So'nggi Shayboniylar vakili Abdullaxonning vafot etishi bilan Buxoro xonligida avj olib ketgan sulolaviy kurashda Buxorodagi katta mulk egalari bir guruhi shoh Abbos Iga murojaat etgan edi. Buxoroliklarning iltimosi bilan shohga elchi yuborgan Urganch voliysi Nurmuhammad Buxoro-Eron o'rtasida vositachilik qilgan. Chunki, bir vaqtlar Hojimxon bilan munosabatlari buzilgan vaqtda Abdullaxon II unga yordam qo'lini cho'zganligi sababidan edi.

Xiva xonligining Rossiya - Eron aloqalarida ham o'z o'rnini bo'lganki, buni M.Tixonov va A.Buxarov hamrohligida Rossiyadan o'z yurtiga qaytayotgan Eron elchisi Amir Alibekning Xiva xonligi hududlari orqali kuzatib qo'yilganligi, hattoki, Xiva xoni ularga o'z elchisini qo'shib Eronga safaviy shohi huzuriga yuborganligi[7.C.257] misolida ko'rish mumkin.

1620-yil fevralida Xiva elchisi Rahimqulining Rus podshosi "Elchilik mahkamasi" xizmatchilari savoliga bergan javobida ham Arab Muhammadxonning Eron shohi bilan do'stona aloqada ekanligi qayd etilgan[8.C.148].

So'nggi shayboniy hukmdor vafotidan keyin sulolaviy kurashlar Buxoroda avj olgani singari, XVII asr boshlarida Xiva xonligida ham ushbu holat kuchayib, bu jarayonda Xorazm mulkdorlari yana Safaviy hukmdoriga murojaat etganlar. Shuningdek, Arab Muhammadxon (1602-1621)ning o'g'illaridan Isfandiyor sulton Safaviy Abbos I va turkmanlarning taka, yovmut, soruq qabilalarini yordamiga tayangan holda hokimiyat uchun bo'lgan kurashda g'olib chiqib, Xiva xonligi taxtini egallagan[9.C.70].

Isfandiyorxon keyinchalik ham Eron bilan do'stona munosabatlarini saqlab turgan, ayrim ziddiyatli holatlarda ham darhol bu aloqalarni tiklashga kirishgan. Undan keyin taxtga kelgan ukasi Abulg'ozzi Bahodirxon (1643-1664) ham qizg'in tashqi aloqalarni olib borishga, izdan chiqqan savdo-sotiq ishlarini, qo'shni davlatlar bilan madaniy, iqtisodiy aloqani yo'lga qo'yishga katta e'tibor bergan. Mamlakat tinchligi yo'lida turkmanlarning muxolif guruhlariga qarshi bir qancha yurishlar uyushtirishga majbur bo'lgan Abulg'ozixon uzoqni ko'ra biladigan siyosatchi sifatida uchinchi tomonning aralashuvini bartaraf qilish maqsadida 1648-yilda Eron shohi Abbos II (1642-1667) ga elchi yuborgan[10.C.70]. Bu elchilik orqali tadbirkor Abulg'ozixon Safaviylar Eroni betarafligini ta'minlash bilan birga, ikki davlat o'rtasida savdo va do'stlik aloqalarini mustahkamlashga erishgan.

XVII asrning o'rtalarida yuzaga kelgan Buxoro xonligidagi ichki sulolaviy kurashlar Buxoro hukmdorlaridan Vali Muhammadxon (1605-1611) va Nodir Muhammadxon (1642-1645)larni ham Eron shohiga murojaat etishga undagan edi. Bu jarayonlardan ma'lum bo'ladiki, oldingi Buxoro Shayboniy hukmdorlaridek Eron bilan yangi Ashtarxoniylar sulolasi dushmanlik kayfiyatida siyosat olib bormadi, aksincha, mintaqada muvozanatni saqlash uchun yaqin do'stona aloqalarni o'rnatdi. Birgina Balx shahri misolida, avval Shayboniylar va Safaviylar o'rtasida kurash mintaqasi bo'lgan bo'lsa, keyinchalik shahar O'rta Osiyodan Turkistonga, Xitoy va Qoshg'arga, Eron va Hindistonga boradigan savdo yo'llari chorrahasida joylashgan bo'lib, Ashtarxoniylar davrida yirik savdo markazi bo'lgan[11.C.45]. "Matlab at-tolibin"[12], "Ravzat ar-rizvon"[13] tarixiy manbalarida Ashtarxoniylar davrida diniy toifa – Jo'ybor shayxlarini mavqei Shayboniy hukmdorlar davridagidan ham yuqori ko'tarilib, ushbu diniy ulamolar hattoki,

hukmdorlarning ham qaroriga ta'sir o'tkazgan. Eron bilan munosabatlarning oldingi davrdagidek emas, balki yaqin do'stlik munosabatlariga kirishiga sabab ham aynan yuqoridagi toifani ta'siri bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Keyingi davrda ham Jo'ybor shayxlari Buxoro xonlarini Eron bilan munosabatlarida elchilik vazifasini o'taganligi, Nodirshohning Hindiston yurishidan qaytyotgan vaqtida ham Abulfayzxon Xo'ja Jo'yboriyni uning huzuriga yuborganligi va Buxoroga mehmon bo'lishlik uchun tashrif buyurishini istagini aytgan[14. B.108-109].

“Firdavs ul-iqbol” asarida Xiva xoni Erengxon (1690-1694) davrida Eron bilan olib borilgan diplomatik aloqalar haqida Isfahonga Husaynshoh (1694-1722) huzuriga elchi qilib yuborilgan yuz qabilasining nufuzli amaldorlaridan bo'lgan Jiyanbiy elchiligi tilga olingan[15.C.61-65].

Rossiya imperiyasi hukumati tomonidan Xiva xonligiga uyushtirilgan A.Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi 6000 kishilik ekspeditsiya (1714 - 1717) munosabati bilan ham Xiva-Eron o'rtasida elchilik almashinuvi amalga oshirilgan edi. Zero, bu ekspeditsiya nafaqat Xiva xoni Sherg'ozixon (1715-1727) va uning atrofida gilarda, balki Eron shohi saroyining ham diqqat markazida turgan voqealardan edi. Ushbu ekspeditsiyaning barbod bo'lganligi to'g'risidagi xabarni yetkazish uchun Isfahonga yuborilgan maxsus Xiva choparini shoh Sulton Husayn minnatdorchilik sifatida 72 chervon bilan taqdirlab, Xiva xoniga ham munosib sovg'alar qatorida 2000 tuman pul taqdim qilib yuborgan[16.C.59]. Bu xabarni yetkazish uchun Xivadan Eronga maxsus choparning yuborilganligidan anglash mumkinki, Eron tomoni ham bundan avval vaziyatni bilish uchun o'zining elchilarini Xiva xonligiga yuborganligini taxmin qilish mumkin. Podsho Rossiyasining yuborgan harbiy ekspeditsiyaning Kaspiy dengizi orqali kelganligi haqidagi ma'lumot dastavval Eron shohining maxfiy hizmati tomonidan aniqlanganligi ham diqqatga sazavor hodisa edi.

Eron shohi Nodirshohning O'rta Osiyoga yurishi tufayli ikki o'rtadagi munosabatlarga jiddiy putur yetkazgan edi (tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, bir vaqtlar A.Bekovich-Cherkasskiy otryadi mag'lub etilganidan keyin asirlikka tushgan rus qo'shinini ham Nodirshoh tomonidan ozod etilib, Rossiyaga qaytish uchun mablag' va ot-ulov bilan taminlangan). Shunga qaramay fors manbalari Nodirshohning Xorazm fathidan so'ng, mahalliy amaldorlar bilan kelishgan holda harakat qilganligini, uning mahalliy urf-odat va boshqaruv an'analarini hisobga olib ish yuritganligini ko'rsatadi[1.B.266].

Fors manbalarining guvohlik berishicha, Do'stimbek mirob va Aburahmonbek qushbegi boshchiligidagi Xorazm akobirlari, lashkarboshi va qabila boshliqlari (“sarkardagon va sarxaylon”) taslim bo'lgandan so'ng, Nodirshoh ularga qarata “Sizlarning orangizda shu podshohlikni boshqarishga qodir bo'lgan kimdir bor bo'lsa menga bildiring, toki men ushbu

viloyatning inon-ixtiyorini topshirib, uni sohibi ixtiyor etib tayinlay”, deya murojaat etgan hamda ularning roziligi bilan lashkarboshi va qabila sardorlarini nufuzli lavozimlarga tayinlab, “Xorazm ishlari”ni tartibga solishni chingiziylarga mansub bo‘lgan Tohirxonga topshirib, ortga qaytgan[15.C.330-331]. Keyingi davrda ham mahalliy yer egalari, Xorazmning yuqori tabaqa vakillari Nodirshoh bilan munosabatlarini barqaror ushlab turishga harakat qilishgan. Mang‘it yer egalaridan bo‘lgan Ortuq inoq ukasi Xo‘rozbekni uncha katta bo‘lmagan qo‘shin bilan Eron shohi xizmatiga yuborgan va ular o‘rtasida ittifoqchilik munosabatlari o‘rnatilgan[17.C.37]. Faqatgina Xiva xonligida emas balki, Buxoro xonligidan ham “Gulshan ul-mulk”[18] asarida keltirilgan ma’lumotlarga qaraganda, 6 mingdan[18.B.132] 18 minggacha askar Eron shohiga xizmat uchun yuborilgan[14.B.109]. Bu jarayonlar shuni ko‘rsatadiki, Buxoro va Xiva xonligidagi o‘sha davrda siyosiy boshboshdoqlik avj olgan, ikki xonlikda ham markaziy hokimiyatdan norozi xalq ommasi ta’siri ham mavjud edi. Oxir oqibatda, Buxoroda ham (1753), Xivada ham (1770) hokimiyat almashinuv jarayoniga yuz tutdi.

XVIII asr o‘rtalarida Buxoroda siyosiy hokimiyat almashinuvi sodir bo‘lib, qisqa vaqt ichida Mang‘it amirlari barcha jabhalarda hokimiyatini mustahkamlab oldi. Xivada XVIII asrning 70-yillarida hokimiyat tepasiga kelib, XIX asrda o‘zlarining siyosiy mavqeyini mustahkamlash yo‘lida ko‘plab ichki va tashqi ta’sirlarni yengish uchun harakat olib borgan Qo‘ng‘irotlar sulolasi (1770-1920) va Erondagi Qojorlar sulolasi (1796-1925) tarixida o‘xshash yoki bir-biriga parallel ravishda kechgan siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni kuzatish mumkin. Ikki mamlakatda ham siyosiy-iqtisodiy jihatdan kuchli urug‘lar va etnik guruhlarining markaziy hokimiyatga qarshi harakatlari, markazdagi fitnalar hamda muxolif guruhlarining qo‘shni davlatlar bilan hamkorliklari hukmron sulola vakillarini doimiy ravishda o‘zlarining harbiy qudratlarini mustahkamlash va mamlakat ichida hamda chegaradosh hududlarga harbiy yurishlar uyushtirib turishiga olib kelgan.

Buxoro amiri Shohmurod 1790-yilda Rossiyaga yuborgan elchisi Nurmuhammad To‘qsoba orqali Buxoro amairligi va Eron o‘rtasida muqarrar urush holatida birgalikda ittifoq bo‘lib kurashishni taklif etadi. Albatta, o‘sha davrda mustahkam hamkrolik pallasida Eron bilan munosabatlarining chigallashishini istamagan Yekaterina II (1762-1796) bu masalani ochiq qoldirgan[19.B.126]. O‘zaro siyosiy ziddiyatlarga qaramay, manbalarda Xiva hamda Buxoro hukmdorlarining janubiy hududlarga yoki shimoldagi qo‘shni Dasht va boshqa chegaradosh hududlarga yurishlari chog‘ida u yerdagi qal’a, viloyat hokimlari bilan olib borilgan elchilik aloqalari haqida ko‘plab ma’lumotlar keltirilgan.

Eron shahzodasi Abbas Mirzo Saraxsni o‘z tasarrufiga kiritib, u yerdagi 5 000 nafar turkmanlarni asir olishi munosabati bilan Xiva xoni Olloqulixon (1825-1842) tomonidan

yuborilgan elchilik bevosita asirlarni ozod qilish yuzasidan olib borilgan harakatlarga misol bo'ladi. Eron olimi H. Mu'izziyning qayd etishicha, "Xorazm podshosi Olloquli tur" (makkor yoki jahldor ma'nosida) 1832-1833-yilda o'z elchisini 5000 tuman pul va noma berib, Abbos Mirzo huzuriga yuborgan[20.S.622]. Olloqulixon arizada keltirilgan bir qator shartlar, jumladan, solur qabilasining bundan keyin Xuroson hududiga hujum qilmasligi va odamlarni asir olmasligi, yo'llarning xavfsizligini ta'minlash singari majburiyatlar evaziga turkman asirlarini ozod qilgan edi[21.B.131-133].

Xiva tarixi bo'yicha muhim manbalaridan "Riyoziy ud-davla" asarida Abbos Mirzo tomonidan Xiva xoni Olloqulixon huzuriga elchi qilib jo'natilgan Yolangto'sh (Yalangto'sh) kelib, "ostonbo'slig' sharafig'a" muyassar bo'lganligi hamda keltirgan "murosila" - kelishuv xati qayd etilgan[21.B.7]. Ushbu murosilaga javoban Xiva elchisi Xolmuhammadboy Eron shahzodasi huzuriga yuborilgan. O'z navbatida, Abbos Mirzo Xorazm elchisiga qo'shib jo'natgan Ibrohimxon Tiflisiy orqali "xitobnoma" yuborib, Xiva xonini o'zaro yakjihatlik va do'stlikka da'vat etgan hamda o'rtadagi gina-kuduratni unutib, oqko'ngillik bilan kelishuv yo'liga kirish va aynan shu orqali aholining tinchligini ta'minlash mumkinligini uqtirgan. Olloqulixon ushbu so'zlarning samimiyligiga shubha qilgan bo'lsa-da, kelgan elchini munosib tarzda kutib olib, elchilik qoidasining barcha jihatlariga amal qilgan holda, mehmoniy sarupolar kiydirib, o'rdugohda ushlab turilgan Yalangto'shxonni ham unga qo'shib, ketishga ijozat bergan.

1839-yilda Xorazmga Eron shohi tomonidan Mirzo Rizo muhandisboshi elchiligi yuborilgan va u V.Perovskiy boshchiligidagi 12 ming kishilik rus qo'shiniga qarshi kurashgan Xo'janiyoz boshchiligidagi 10 ming kishilik Xorazm qo'shinining g'alabasiga guvoh bo'lgan edi. Mirzo Rizo muhandisboshi bir yilga yaqin Xiva xoni saroyida yashab qolgan va qaytish chog'ida unga qo'shib, Xorazm elchisi Otaniyoz mahram Eron huzuriga yuborilgan. Olloqulixon o'z elchisi orqali Eron shohiga 40 bosh sara ot va boshqa qimmatbaho hadyalar berib yuborgan. Bu elchilikka javoban Eron shohi o'zining ishonchli vakili Shahsuvorbekni Xiva xoni Olloqulixon huzuriga yuborgan[21.B.152].

Xiva "Ichon qal'a qo'riqxona-muzeyi" arxivida Eron shohi tomonidan Olloqulixonga yo'llangan maktubning asl nusxasi saqlangan bo'lib, unda ilgari Xiva xoni huzuriga yuborilgan Eron elchisi Mirzo Rizo haqida eslatilib, unga qo'shib yuborilgan Xorazm elchisi Otaniyoz mahramning munosib tarzda kutib olinganligi qayd etilgan. Mazkur elchiga hamroh qilib jo'natilgan Shahsuvorbek orqali sadoqat va ittifoq ta'kidi uchun ushbu "Humoyunnomai do'stona"ni yuborayotganligini ma'lum qilgan shoh, "...ma'lumki, [u tarafdan] har qancha birdamlik, do'stlik va muhabbat ko'rsatilsa, bizlar ham bundan-da ziyoda do'stlik rusumini namoyon etamiz" degan fikrni bildirgan[22].

1841-yilda Xorazmga yuborilgan Muhammad Alixon G'afur boshchiligidagi elchilik zimmasiga o'zaro do'stlik aloqalarini mustahkamlash, eronlik tutqunlarni ozod etish va qul savdosiga chek qo'yish vazifasi yuklatilgan. Unga Angliya va Rossiya imperiyasining Erondagi doimiy elchilaridan vakillar Vilyam Tomson va Muhammad Hasanbek ham hamroh bo'lishgan edi. Lekin, Eron elchisining o'zi qayd etganidek, ularning hamrohliklari elchilikka ancha salbiy ta'sir ko'rsatgan edi.

Elchining axborotnomasida qayd etilishicha, xon oxirgi uchrashuvda Eron elchisiga tanbeh berarkan, xafa bo'lib "jamshid martabali podshoh hamisha o'z odamini yuborardilar, bu gal nima sabab bo'lib, rus va inglizdan odam qo'shib yuboribdilar? Sen o'zing kelaverganingda maqsadga muvofiq bo'lardi. Mana endi asir bersam, do'st-u dushman "xon hazrat rus va inglizdan qo'rqqanidan asir berdi deya ustimdan kuladilar", degan fikri bildirgan[23]. Shu jihatdan ikki oy davom etgan muzokaralar deyarli natijasiz tugagan edi. Lekin Muhammad Alixon elchiligi samarasiz tugamagan, Xiva xoni Olloqulixon ikki davlat do'stligi saqlanib qolishi, Xorazmning hamisha muzokaralar uchun ochiq ekanligi hamda tez orada Eron shohining yana elchi yuborishini kutib qolishligini bildirib, Muhammad Amin to'ra tashabbusi bilan do'stona munosabatlar dalili sifatida ozod qilingan Xuroson voliysining jiyani Muhammad Valixon Xorazm elchilari bilan birga Tehronga yuborilgan edi[21.B.7].

XIX asr o'rtalarida Xiva-Eron o'zaro do'stona aloqalarini yo'lga qo'yishda Eron elchisi Rizoqulixon Hidoyat (Lolaboshi)ning o'ziga xos o'rni bor. Katta tajribaga ega bo'lgan davlat arbobi sifatida u 1851-yilda Eron va Xiva xonligi o'rtasidagi diplomatik muzokaralarni olib borish uchun Xorazmga elchi qilib yuborilgan. Rizoqulixon boshchiligidagi elchilik Xiva xoni tomonidan Eronga yuborilgan elchi Otaniyoz Mahram bilan birga 1851-yil 5-aprelda Tehrondan Xorazmga qarab yo'l olgan. Elchining zimmasiga xonlikda asirlikda bo'lgan barcha Eron fuqarolarini ozod qilishga erishish va ularni Eronga olib kelish, Xiva xonini chegaradosh hududlarga uyushtirilayotgan olomon chopqinlarini man etishga qaratilgan farmon chiqarishga hamda musulmonlari olib-sotishni, ya'ni qulchilikni bekor qilishga majbur etish singari vazifalar yuklatilgan edi. Albatta nihoyatda jiddiy, ya'ni, nafaqat Xiva xonligi, balki butun mintaqa siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi bilan bog'liq "qul savdosi"ga barham berishdek mushkul masalani bir elchilik doirasida hal etish mumkin ham emas edi. Chunki, birgina Sherg'oziyxon davrida eronlik qullarning soni Xivada 60 mingga yetganligi haqida ma'lumotlar mavjud[24.S.3]. XIX asrning o'rtalarida Eron va unga tutash bo'lgan mintaqalarning aksariyatida 30 mingdan ortiq fors qullarini mavjudligi ham keyinchalik ushbu jarayonga Qojarlarning jiddiy ravishda qarashiga sabab bo'lgan.

Shu bilan birga, mahoratli elchi va dunyoqarashi keng ziyoli bir inson sifatida uning Xiva xonida juda katta taassurot hosil qilganligi hamda ikki o'rtadagi munosabatlarning mavjud holatini saqlab qolinishi, shubhasiz, Rizoqulixonning xizmati edi.

Eron davlati Buxoro amiri va Xiva xonlarini murosaga chaqirish uchun 1832 yili va 1839-1840, 1842, 1851-1852 yillari ketma-ket o'z mohir diplomat-elchilarini bu mamlakatlarga yuboradi, o'sha yillarda Buxoro, Xiva va Qo'qon xonligidan ham bir necha bor elchilar sulh tuzish va do'stona munosabatlar o'rnatish masalasida Tehronga boradilar. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, 1812-1852-yillar oralig'ida Xiva xonligidan Eronga Bekish xalifa, Nodir sardor, Umarshayx, Amirxon, Badirxonbek, Muhammad Husaynbek, Bekniyoz mahram, Durdibek (Bekdurdi), Muhammad Sharifbek kabi elchilar borishgan. Eron tomonidan Xivaga 1832 yili Yalangto'shxon ismli elchi kelib, o'z davlatining Xiva hukumatiga nisbatan rasmiy qarashlarini izhor qiladi; 1839-1840 yili Mirzo Rizo Mizon Oqosi Muhandisboshi Xivaga elchi bo'lib keladi; Buxorodan 1812 yili Amir Haydarning Ali Rizo nomli elchisi asirlar va do'stona aloqalar o'rnatish masalasida Fathalishoh saroyiga boradi; 1832 yili Tehronga Qo'qon xoni Muhammad Alixonning elchisi boradi; Xiva xoni tomonidan ham Muhammadshoh Qojar davrida va keyinroq ham Otaniyoz mahram, Durdibek kabilar Tehronga elchilik vazifasi bilan boradilar[23]. Keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ziddiyat va qiyinchiliklarga qaramay, har qanday beqaror ziddiyatli davrda ham O'rta Osiyo - Eron savdo-diplomatik aloqalari olib borilgan.

XIX asrning o'rtalarida Erondan Markaziy Osiyoga bir necha bor elchilar oqimini kelishiga sabab, avvalo, o'sha davrda ikki mintaqaga ham havf sifatida inglizlar va ruslarning kirib kelishi sababidan edi. Eron qojarlar sulolasi umumiy ikki tomonga qarshi kurashda xatto xonliklarga birgalikda kurashaylik deya elchilardan habar yolladi.

Eronlik olim Abdulhusayn Navoiy qayd etganidek, tabiiyki, qadimdan davom etib kelgan bu aloqalar hamisha ham do'stona bo'lmay, hatto, aka-ukalar o'rtasida bo'lgani singari ba'zan buzilib, ba'zan yaxshilanib turgan. Lekin har qanday holatga qaramay ikki xalq do'stlik va qo'shnichilik aloqalarini olib borganlar, ular o'rtasidagi bordi-keldi, tijorat va ziyorat hamisha davom etgan[25]. Ushbu mintaqalar o'rtasidagi aloqalar haqida rus tarixchisi Bartold ham, Markaziy Osiyo XVII-XIX asrlar tarixini juda kam o'rganilgan. U buni tadqiqotchilarning qiziqishi yo'qligi bilan izohlaydi. Amerikalik eronshunos olim M.Dikson esa "Xonliklar davri o'zbek tarixini faqat Safaviylar tarixi yordamida bugungidan mukammalroq yoritish mumkin"[26.P.248-252], deb ta'kidlagan. Mahalliy tarixchilardan N.Allayeva ham o'zining monografiyasida[27.B.496], birgina Eron va Xiva xonligi aloqalarni kam o'rganilganligi, mavjud manbalarni to'la tadqiq etilmaganligini alohida e'tirof etadi.

Markaziy Osiyoga 1845-1885-yillarda rus ekspansiyasi natijasida, dastlab, Buxoro amirligi hududlari zabt etildi (1868), 1873-yilda Xiva xonligi ham tobe etilib, 1876-yilda Qo‘qon xonligi butunlay tugatildi. 1877-1879-yillarda bugungi Turkmanistonning Axaltaka vohasiga general Lazerov boshchiligida yurish qilinib, dastlab g‘alaba, keyin esa mag‘lubiyatga uchrashi natijasida rus qo‘mondonlari tomonidan yangi hujumga “Bolgariya qahramoni”, rus-turk urushi “Milliy qahramoni” deya ulug‘langan M.D.Skobelov tayinlandi va 1881-yilda turkmanlarning daxshatli qirg‘ini evaziga g‘alaba qildi[28.B.179]. Ushbu g‘alabalardan keyin ruslarning janubi-g‘arbiy chegarasi Eron bilan to‘qnashdi. Rus-Eron chegara muammosi dastlab 1881-yil 21-sentabrda Axal shartnomasi[29] bilan, keyinchalik 1881-yil 9-dekabrda Tehronda rus elchisi I.A.Zinovyev va Eron tashqi ishlar vaziri Mirzo Saidxon o‘rtasida asosiy 9 moddadan iborat, maxfiy 5 moddali chegara shartnomasi imzolandi[30.C.156-163]. Ushbu shartnomalar imzolangan bo‘lsada, 1894-yilga qadar chegara masalasi uzil-kesil hal etildi.

Xulosa qilib aytganda, XVI-XIX asrlarda Markaziy Osiyo xonliklari (ayniqsa Xiva xonligi) bilan Eron (Safaviylar va keyinchalik Qojarlar) o‘rtasidagi munosabatlar murakkab va ko‘p qirrali dinamikaga ega bo‘lgan. Mintaqadagi kuchlar muvozanatining o‘zgarishi (Shayboniylar, Ashtarxoniylar, Mang‘itlar, Qo‘ng‘irotlar) Eron bilan munosabatlarning tabiatini belgilab bergan. Markaziy Osiyo xonliklari va Eron o‘rtasidagi munosabatlar doimiy ravishda o‘zgaruvchan siyosiy vaziyat, iqtisodiy manfaatlar va mintaqaviy xavflar ta‘sirida shakllangan bo‘lib, bu munosabatlar nafaqat diniy, balki ko‘proq siyosiy-iqtisodiy omillar ta‘sirida rivojlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston tarixi. (O‘zbekiston diplomatiyasi tarixi) VII jild [Matn] / Jamoa. –T.: Ma’naviyat, 2023. –B. 262-270.
2. Низамутдинов И.Г. Очерки истории культурных связей Средней Азии и Индии (XVI-XX вв.). - Т.: 1981. -С. 27.
3. Iskandarbek Turkman (Munshiy). Tarixi olamoroyi Abbosiy. 1-jild. –B. 36.; Ali Akbar Viloyati. Tarix-i ravobat-i xoriji-yi Iron dar ahdi shoh Ismoil Safaviy... -Tehron. 1350. - B. 29.
4. Фиёсиддин ибн Хумомиддин Хондамир «Хабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар» («Башар ахли сийратидан хабар берувчи дуст»):. -ТОШКЕНТ. “O‘ZBEKISTON”. 2013. –B. 966-976.
5. İsgəndər bəy Münşi Türkman. Dünyanı bəzəyən Abbasın tarixi (Tarixe-aləmaraye-Abbasi):. -Bakı, “Şərq-Qərb” Nəşriyyat evi, 2010. –S. 100-105.

6. Iskandarbek turkman. Tarixi olamoroyi Abbosiy. 1-jild. -S. 104-105; Извлечения из «Тарих-и алям-ара-и Аббаси» Искандера Мунши. Перевод под ред. А.А. Ромаскевича // РУКАВИЦА. С. 65-66.
7. Бушев Г.П. История посольств и дипломатических отношений Русского и Иранского государств в 1586 - 1612 гг. - С. 257.
8. Миклухо-Маклай Н.Д. Балхский поход шаха Аббаса I // Страны и народы Востока. М., 1980.- С. 148.
9. Корженевский Н.Л. Посольство Михаила Тихонова в Персию и путь его через Хиву и Кара-Кумы в Хоросан (1613-1615) // Известия АН УзССР. 1951. № 6. - С. 70.
10. Распросные речи хивинского посла Рахимкули в Посольском приказе на разговоре с думными дьяками Иваном Грамотиным и Саввой Романчуковым // МИУТТ. С. 299.
11. Ахмедов Б. А. История Балха (XVI - XVIII аср 1- ярми). -Т. Фан. 1982. –С. 45.
12. نيبلاطلا باطم .بالاط دمحم سابعلاوبا Абу Аббос Мухаммад Толиб Хожа. Матлаб ат-толибин. ЎЗР ФА ШИ. Қўлёзма, инв. №3757.
13. ناوزرلا تضور .ىریمشا نى دلار دى Бадриддин Кашмирий. Равзат ар-ризвон. ЎЗР ФА ШИ. Қўлёзма, инв. №2094.
14. Низомиддинов И. Ўрта Осиёнинг чет эл шарқи билан муносабатлари (Бухоро амирлигининг Ҳиндистон, Афғонистон ва Эрон билан бўлган муносабатлари тарихидан). –Тошкент.: Ўздавнашр, 1961. –Б. 108-109.
15. Shir Muhammad mirab Munis and Muhammad Riza mirab Agahi. Firdaws al-iqbal... P. 135. Чулошникова А. Торговля Московского государства со Средней Азией в XVI - XVII вв. // МИУТ... С. 302. Веселовский Н.И. Иван Данилович Хохлов-русский посланник в Персии I Бухаре V XVII в.) / / Журнал Министерства народного просвещения. СПб., январь 1891 г. - С. 61, 65.
16. Бартольд В. В., Очерк истории туркменского народа. Соч., т. II, ч. 1, М., 1963. - С. 59.
17. Аннанепесов М. Укрепление русско-туркменских взаимоотношений. - С. 37.
18. كولملا نىلگ بوقى دمحم Мухаммад Якуб. Гулшан ал-мулук. Бухоро вилоят кутубхонасининг Шарқ бўлими. Қўлёзма, инв. №297.

19. Зиёев Ҳ. Ўзбекистоннинг Каспий-Волга бо'йлари ва Оренбург орқали Россия билан элчилик муносабатлари тарихи (XVI асрнинг иккинчи ярми - XIX аср). I Жилд. Тошкент, 2014. –Б. 126.
20. Mu'izzi, Husam. Tarikh-i rawabit-i siyasi-i Iran ba dunya...-S. 622.
21. Огаҳий Муҳаммад Ризо. «Риёз уд-давла»дан / Муҳаммад Ризо Мироб Эрназарбий ўғли Огаҳий. Асарлар: В жилд. Нашрга тайёрловчи Ғ.Каримов. Маъсул муҳаррир С.Долимов. – Тошкент.: 1978. –Б. 131-133.
22. Эрон шоҳининг Оллоқулихонга мактуби / Хива «Ичан қалъа» қўриқхона-музейи архиви. ГХМЗ КП 3283.
23. Muhammad Alixon Gafur. Xorazm safari kundaligi (Muhammadshoh Qojor va Olloqulixon o'rtasidagi diplomatik aloqalar tarixidan 1842-yil) / Xorazm safari kundaliklari. Mas'ul muharrir Sh. Vohidov, fors tilidan tarjimon I. Bekjonov. - Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2009. –Б. 13-52.
24. Khaitov V. İran ile Hîve hanlığı (özbekler) arasindaki siyasi ilişkiler (1642-1747). Yüksek Lisan Tezi. İstanbul. 2019. –S. 3.
25. غفورى ف. ا. روبات صفويه و ازبكى. پيامبر
26. Martin B. Dickson. "The Sháh and the Kizilbásh: The Foundation of Safavid Iran" (1960) / 24th International Congress of Orientalists (München, 1957) (Akten des Vierundzwanzigsten Internationalen Orientalisten-Kongresses, München, 1957). Deutsche Morgenländische Gesellschaft (German Oriental Society). - P. 248–256.
27. Аллаева Н. Хива хонлигининг дипломатияси ва савдо алоқалари (XVI - XIX асрлар) [Матн]: / Н.Аллаева. Тошкент: Akademnashr, 2019. - 496 б.
28. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Тузувчилар: Ҳ.Содиқов, Р.Шамсутдинов, П.Равшанов ва бошқ.; Таҳрир хайъати: А.Азизхўжаев (раис) ва бошқ. - Т.: Шарқ, 2000 – Б. 179.
29. Chahryar Adle. History of Civilizations of Central Asia: Towards the contemporary period: from the mid-nineteenth to the end of the twentieth century. - UNESCO, 2005-01-01. - 1008 с. - ISBN 978-92-3-103985-0.
30. Россия и Иран: история формирования границ / Л. М. Кулагина, Е. В. Дунаева. - 2-е изд., доп. - (Очерки истории формирования южных границ Российской империи, СССР, государств СНГ / Российская акад. наук, Ин-т востоковедения, Московский гос. ун-т им. М. В. Ломоносова, Ин-т стран Азии и Африки). - ISBN 978-5-91367-035-9. - М.: Гуманитарий, 2007. – С. 156-163.